



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI HAY'AT QARORI

2026-yil 7-yanvar

№ 1/1

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2026-yil I yarim yilligi uchun mo'ljallangan ish rejasini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan joriy yilning I yarim yilligida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarning ijrosini rejalashtirish va tizimli ravishda tashkil etish hamda belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash bo'yicha vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparati boshqarmalari va mustaqil bo'lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2026-yil I yarim yilligi uchun mo'ljallangan ish rejasini ***ilovaga muvofiq tasdiqlansin.***

2. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining hay'ati a'zolari, vazirning barcha o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlariga vazirlikning 2026-yilning I yarim yilligi uchun mo'ljallangan ish rejasiga kiritilgan ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlarning o'rnatilgan muddatlarda, sifatli hamda to'laqonli bajarilishini tashkil va ta'min etish, ijrosi haqidagi ma'lumotlarni shaxsan hay'at raisi (*Vazir*) nomiga yozib, umumlashtirish uchun Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'limi (Ibragimov)ga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

Belgilab qo'yilsinki, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining hay'ati a'zolari vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparati boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari 2026-yilning I yarim yilligi uchun mo'ljallangan ish rejasiga kiritilgan masalalarni vazirlikda belgilangan Reglament asosida tayyorlanishiga hamda tizimli ravishda tashkil va ta'min etish uchun shaxsan mas'ul hisoblanadilar.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga:

har oy yakuni bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarining 2026-yilning I yarim yilligi uchun mo'ljallangan ish rejasining ijrosini tanqidiy ruhda muhokama qilib, ustuvor vazifalar, o'rganiladigan va muhokama qilinadigan masalalar hamda amalga oshiriladigan tadbirlarning belgilangan muddatlarda, sifatli hamda to'laqonli bajarilishini tashkil va ta'min etish yuzasidan barcha darajadagi rahbar-xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligi kuchaytirish;

har chorak yakuni bilan 2026-yilning I yarim yilligi uchun mo'ljallangan ish rejasining ijrosi haqidagi ma'lumotlarni yozma ravishda vazirlikka taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Vazirning birinchi o'rinbosari Z.Ishpulatov, Vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, M.Karimov, O'.Sheraliyev hamda Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'limi boshlig'i M.Ibragimovlarga:

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2026-yilning I yarim yilligi uchun mo'ljallangan ish rejasini yuzasidan tizimli monitoring yuritish;

vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'limlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarining 2026-yilning I yarim yilligi uchun ish rejalarni tartibga solish bo'yicha kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'limlarining, shuningdek, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarining ish rejalari ijrosi ustidan tizimli nazorat o'rnatish va ijrosini har oyda tanqidiy ruhda tahlil qilib borish hamda har oy yakuni bilan Vazirlar Mahkamasiga va vazirlik rahbariyatiga, shuningdek, boshqa davlat organlariga (*so'ralgan vaqt va muddatlarda*) axborot va ma'lumotlarni taqdim etish;

ish rejasiga kiritilgan topshiriqlar va tadbirlarning ijrosini belgilangan muddatda, to'laqonli va sifatli ta'minlamagan va o'rnatilgan tartibda axborot taqdim qilmagan, shuningdek, ijrosi kechikishiga yo'l qo'ygan rahbar-xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llash yuzasidan taklif (*vazirlik buyruq loyihasini*) kiritib borish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini tashkil qilishni vazir o'rinbosarlari zimmasiga yuklatib, umumiy nazoratini o'z zimmasida qoldiraman.

Hay'at raisi



Sh. Xamrayev